

MUVAFFAQIYATSIZLIK – MUVAFFAQIYAT KALITI

Maxmudova Malika Adaxamjon qizi

Kokand universiteti Andijon filiali Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2- kurs talabasi.

Annotatsiya: “Muvaffaqiyatsizlik – muvaffaqiyat kaliti” mavzusi inson hayotida uchraydigan qiyinchilik va xatolarning ahamiyatini yoritadi. Ushbu ishda muvaffaqiyatsizliklar orqali tajriba orttirish, shaxsiy rivojlanish va kelajakdagi yutuqlarga erishish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, qat'iyat, sabr-toqat va ijobiy fikrlashning muvaffaqiyatga erishishdagi o'rni asoslab beriladi.

Annotatsiya: Тема «Неудача – ключ к успеху» раскрывает значение трудностей и ошибок в жизни человека. В данной работе анализируется роль неудач в накоплении опыта, личностном развитии и достижении будущих успехов. Также обосновывается важность настойчивости, терпения и позитивного мышления на пути к успеху.

Annotatsiya: The topic “Failure is the key to success” highlights the importance of difficulties and mistakes in human life. This work analyzes how failures contribute to gaining experience, personal development, and achieving future success. It also emphasizes the role of perseverance, patience, and positive thinking in reaching.

Kalit so'zlar: muvaffaqiyatsizlik, muvaffaqiyat, hayotiy tajriba, shaxsiy rivojlanish, qat'iyat, sabr-toqat, motivatsiya

Ключевые слова: неудача, успех, жизненный опыт, личностное развитие, настойчивость, терпение, мотивация,

Keywords: failure, success, life experience, personal development, perseverance, patience, motivation

Biz ishda, munosabatlarda, yumushlarda va hayotning boshqa jabhalarida niyatimizga yetkazuvchi muvaffaqiyat formulasini izlaymiz. Biroq hamma vaqt ham istagimiz eshiklarini ochib beradigan kalitni topolmaymiz. Hayotda muvaffaqiyat formulasini topish mumkinmi?

Qanday qilsak niyatimizga tez erishamiz?

Muvaffaqiyatni odamning ayni vaqtdagi holati bilan o'lchab bo'lmaydi. Muvaffaqiyat – bosib o'tilgan yo'l va unda uchragan to'siqlarni qay yo'sinda yengib o'ta olingani bilan aniqlanadi. Muvaffaqiyat – inja orzularning amalga oshirilishi, asosiy maqsadning hayotga tadbiiq qilinishi bilan belgilanadi. Istaklarni amalga oshirishning esa juda ko'p usullari mavjud. Shunchaki o'tirib, omad kelishini kutish ham mumkin. Biroq eng tez va samarali usuli donolarcha fikrlab, sovuqqonlik bilan harakat qilishdir. Omad kelishiga umid qiling. O'zgarishlar hamma vaqt xavotirga

soladi. Biroq sizning hayotingizni o‘zingizdan boshqa hech kim o‘zgartira olmaydi. Istalgan narsaga qanday erishish mumkin? Orzularni qanday amalga oshirish mumkin?

Muvaffaqiyat formulasi. Omad sari 10 qadam

“Boshqalar uxlayotganda o‘rganing, boshqalar dam olayotganda ishlang, boshqalar bo‘shashganda tayyor turing va boshqalar taslim bo‘lganida orzularga beriling”.

Ingliz shaxmatchisi Uilyam Artur Uord.

Muvaffaqiyat bir yoki ikki omilni bajarishga bog‘liq emas. Muvaffaqiyat barcha 10 ta o‘zgarishni amalga oshirishga bog‘liq. Agar siz ularning ayrimlariga amal qilib, qolganlariga e‘tibor bermayotgan bo‘lsangiz, hech qachon muvaffaqiyatga erisha olmaysiz. Muvaffaqiyat o‘zgarishlarning o‘ziga emas, ularni ko‘paytirishga teng. Matematikani eslang. Har qanaqa katta sonni nolga ko‘paytirsangiz ham baribir natija nolga teng bo‘ladi. Agar formuladagi biror punkt nolga teng bo‘lsa, bilingki muvaffaqiyat ham nolga teng bo‘ladi.

1. Ustuvor vazifalarni ilgari suring

Hayotiy ustuvor vazifalarni to‘g‘ri tartiblash juda ham muhim. Bizning kuchimiz, manbalarimiz va vaqtimiz cheklangan. Agar uni zarur narsalarga sarflab, to‘g‘ri taqsimlay olsak, niyatimizga yeta olamiz. Agar o‘z hayotiy imkoniyatlarimizni befoyda va mayda narsalarga ishlatsak, ko‘p narsani yo‘qotamiz. Agar sizni ayni hayotiy haqiqat qanoatlantirmayotgan bo‘lsa, demak siz o‘z imkoniyatlaringizni noto‘g‘ri rejalagansiz. Ko‘zlangan niyatga yetishmoq uchun nima qilish kerak? Maqsadga yetish uchun har bir kunni nimadan boshlash lozim? Qanday ish bilan mashg‘ul bo‘lish va qaysisidan qochish kerak bo‘ladi? Dastlab nimani istashingizni tushunib oling, ana undan keyin uni birinchi o‘ringa qo‘ying.

2. Reja va strategiya ishlab chiqing

Biz rejasiz juda ham noaniq va besamar harakat qilamiz. Bir ishga kirishamiz, uni tashlab ikkinchisiga o‘tamiz, uchinchisi haqida fikrlaymiz. Xuddi Ivan Andreyevich Krelovning “Oqqush, cho‘rtan baliq va qisqichbaqa” haqidagi masaliga o‘xshaydi, shundaymasmi? O‘z-o‘zingizga savol bering: orzularim va maqsadlarim qanday o‘zi? O‘z hayotimni 5,10 yoki 15 yildan keyin qanday tasavvur qilaman? Shu asosda nimalar qilish kerakligini atroflicha o‘ylab, hayotingizga taalluqli qisqa muddatli va uzoqni ko‘zlagan rejalar tuzing. Rejada 5-10 yillik maqsadlaringizni akslantiring. Undan keyin bu yilga, ayni shu oyga va keyingi haftaga reja qilib oling. Aynan yozma tarzda bo‘lsin. Hammasi aniq va ravshan ko‘rinayotgani o‘zingizni ham ajablantiradi. Maqsadlar bir-birini to‘ldiradi. Siz uchun har kun nima qilish kerakligi ancha tushunarli bo‘lib qoladi. Bu kundalik uncha katta bo‘lmagan harakatlar juda ham zarur ulkan natijani yetaklab keladi. Hatto bir kunga ham. Shu

tariqa o‘z ish unumingizni oshirasiz va rejalangan hamma vazifani amalga oshirishga ulgurasiz. Bu muvaffaqiyat formulasining muhim qoidasi.

3. Hayotingizni imkoniyatlar bilan to‘ldiring

Yaxshi imkoniyatlarni kutib o‘tirmasdan, hayotingizni o‘zingiz imkoniyatlar bilan to‘ldiring. Mo‘jiza kutmang, aksincha, o‘zingiz mo‘jiza yarating. Lotereyadan katta yutuq kutmang, xazina qidiring. Harakat va omad o‘rtasida mustahkam aloqa mavjud. Imkoniyatlar biz ularni qabul qilishga tayyor bo‘lgan vaqtimizda keladi. Uyda o‘tirmasdan odamlar bilan ko‘p muloqot qilayotganimizda, yangi joylarga borib, qiziqroq narsalarni ko‘rganimizda, tavakkal qilishdan qo‘rqmaganimizda paydo bo‘ladi bu imkoniyat. O‘zingiz sayohatga chiqmaguningizcha mo‘jizalarni ko‘rolmaysiz. Imkoniytlar yo‘lning navbatdagi burilishidan boshlanadi.

4. Intizomli bo‘ling

Biz ijtimoiy tarmoqlarni, seriallarni, kompyuter o‘yinlarini, spirtli ichimliklarni, yalpayib yotishni, vaqtni maqsadsiz o‘tkazishni yoqtiramiz. Bularning hammasi vaqtimiz hamda kuchimizni oladi. Aynan o‘sha bekor ketgan vaqt va kuchimizni ancha foydali ishga sarflashimiz mumkin edi-ku. Ishlaringizga vaqtingiz yo‘qmi? Biroq internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa bema‘niliklarga vaqt topasiz. Dam olish va o‘yin-kulgini eng kam miqdorgacha kamaytiring va muhim ishlar bilan shug‘ullaning. Intizom va tartib harbiylarning so‘ziga o‘xshadi. Ammo intizom va tashkil qilmasdan turib ajoyib yutuqlarga erishish mumkin emas. Ichki zaiflikka berilishni bas qiling. Har safar vaqtingizni bekor sarf qilayotganingizda bilingki – siz o‘z orzularingizga xiyonat qilayapsiz!

5. Qat‘iyatli bo‘ling. Xatolar bo‘ladi.

“Ayrim odamlar muvaffaqiyatga bir qadam qolganida taslim bo‘lishganini hatto tasavvur ham qilishmaydi”. Amerikalik kashfiyotchi va tadbirkor Tomas Edison. Xatolarsiz g‘alabalar bo‘lmaydi. Muvaffaqiyat formulasi xatolardan qo‘rqmaslikka chaqiradi. Standart xatolardan qochishga harakat qilish lozim, biroq baribir uchraydi. Xatolarsiz olg‘a harakat qilish aslo mumkin emas. Barcha olimlar, biznesmenlar va boshqa kuchli shaxslar ham o‘z vaqtida xatolarga yo‘l qo‘yishgan. Muvaffaqiyatga yo‘l qat‘iyat va xatolardan o‘rganish mahorati orqali o‘tadi. Omadsizlik – bu yakun emas. Kurashni davom ettirish uchun kuch toping. Siz taslim bo‘lmaguningizcha o‘yin tugamaydi. Taslim bo‘ldingizmi, bilingki shaxmat taxtasidagi asosiy maqsadga yetishiga 2 qadam qolgan piyodadek bo‘lib qolasiz.

6. E‘tiborni jamlashni o‘rganing

Shug‘ullanayotgan vazifangizga e‘tiboringizni 100 foiz qarating. Xayolingizni chalg‘itadigan narsalarga diqqatingizni bo‘lmang. Ishlayapsizmi, ishlang. Birov bilan muloqot qilayapsizmi, muloqot qiling. Sport bilan shug‘ullanyapsizmi, shug‘ullaning. Agar o‘qiyotgan bo‘lsangiz, o‘qing. Dam olayotganda, dam oling. Boshqa narsalarga

chalgʻimang. Oʻsha ish bilan band boʻling. Eʼtiborni jamlash – bu samaradorlikka erishtiruvchi va maqsadga eltuvchi ajoyib qurol.

7. Bilim va tajriba orttiring

Dunyo juda tez oʻzgarimoqda. Agar oʻqib-oʻrganib, bilim doirangizni kengaytirib bormasangiz, birpasda orqada qolib ketish hech gap emas. Bill Geys, Ilon Mask, Mark Sukerberg, Uorren Baffet, Pavel Durov. Ular oddiy kishilarga qaraganda 20-30 marta koʻproq kitob oʻqishadi. Shu boisdan oʻrtacha odamdan ming marta samaraliroq natijani qoʻlga kiritishadi. Doimiy ravishda yangi va qiziq maʼlumotlar bilan tanishib boring. Kitob oʻqing, qiziq videolar koʻring, foydali axborotlarni izlang, har tomonlama rivojlanishga va oʻz sohangizning ustasi boʻlishga, yangi bilimlarni egallab tajriba oshirishga intiling. Miyangizni doimiy ishlashga va bilimlaringizni faollashtirishga majbur qiling.

8. Zarur narsani amalga oshiring

Natijaga erishish uchun bir nuqtaga uring. Charchamang va chalgʻimang. Toʻgʻri ishlarni amalga oshirish bilan niyatingizga yaqinlashib borasiz. Doimiy harakat yangi imkoniyatlarni ochadi va orzuning amaliy roʻyobini koʻrsatadi. Muvaffaqiyat formulasi juda oddiy: ishla, ishla, ishla. Har kun tinmasdan oldinga qarab intiling.

9. Strategiya va rejalarangizni qayta koʻrib chiqing

Agar voqealardan oʻz vaqtida xabardor boʻlib tursangiz, uzoq muddatga va qisqa muddatga moʻljallangan rejalarangiz bir muncha aniq koʻrinadi. Oʻz gʻalabalarangiz va muvaffaqiyatlaringizni tahlil qiling. Harakatingizning nisbatan samarali yoʻllarini izlang. Moslashuvchan va koʻnikuvchan boʻling. Agar nimadir koʻngildagidek chiqmasa, boshqacha yondashuvni toping. Yangilikni qoʻllab koʻring, imkoniyatni qoʻldan chiqarmang, istiqbolni koʻra biling, odamlar bilan muloqot qiling, oʻz imkoniyatlaringizdan unumli foydalaning. Oʻz yoʻnalishingizda doimiy ravishda oʻqib-oʻrganing. Xalaqit beruvchi va eʼtiboringizni tortuvchi hamma narsadan voz keching. Voqelikni tahlil qiling va yondashuvni shakllantiring. Koʻpgina yirik kompaniyalar moslashuvchanlikni yoʻqotib, ogʻir boʻlib qolishganida “sinib” ketishgan. Oʻz maqsadingiz sari olgʻa boring va adashib ketmaslik uchun doimiy ravishda kompasingizga qarab yoʻlingizni aniqlab turing.

10. “Omadga kalit – istakda. U esa hamma vaqt ichimda yonib turadi”. Amerikalik aktyor va rejissyor Al Pachino.

Baxt muhim narsalar oʻrtasidagi muvozanatni topishdadir. Ishga, yumushga, rivojlanishga, oilaga, sportga, uyquga, doʻstlarga, koʻngilli hordiq chiqarishga vaqt ajrating. Oʻzingiz uchun muhim vazifalarni aniqlab olgach, ularni amalga oshirish vaqtini ham belgilab qoʻying. Shu tariqa toliqishdan xalos boʻlasiz. Muvaffaqiyat qozonish istagi kuchayadi. Hayotdan yana-da koʻproq zavq olib, oʻzingizni baxtli va kuchli his qila boshlaysiz.

Muvaffaqiyat formulasi quyidagi o'zgarishlarni amalga oshirib, ko'paytirishga teng. Agar ulardan biri nolga teng bo'lsa, muvaffaqiyat ham nolga teng bo'ladi. Bu sifatlarning 1-2 tasinigina rivojlantirib, muvaffaqiyatga umid qilib bo'lmaydi.

- Ustuvor yo'nalishlarni belgilash;
- aniq reja asosida harakat;
- imkoniyat va qulay vaziyatni doimiy izlash;
- qat'iy intizom, tartib va jadval;
- qat'iyatlilik va mag'lubiyatdan keyin taslim bo'lmaslik;
- vazifalarga jiddiy e'tibor;
- mustaqil o'qib-o'rganish. Bilim va tajriba orttirish;
- har kuni muntazam ravishda oldinga harakat;
- strategiyaga aniqlik kiritish va vaziyat tahlili;
- hayotiy muvozanatni izlash.

Taklif etilgan formulaning barcha jihatlarini e'tiborga olsangiz, muvaffaqiyatga erishishingiz aniq. Har qanaqa g'alabaga mashaqqatli mehnat va o'zingni fido qilish evaziga erishiladi. Yakuniy muvaffaqiyat esa o'z orzuvingizni butun hayotingiz davomida barcha sinovlardan eson-omon o'tishingizga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Think and Grow Rich – Napoleon Hill
2. Failing Forward – John C. Maxwell
3. Mindset: The New Psychology of Success – Carol S. Dweck
4. Grit: The Power of Passion and Perseverance – Angela Duckworth
5. The 7 Habits of Highly Effective People – Stephen R. Covey
6. Atomic Habits – James Clear
7. Outliers – Malcolm Gladwell
8. Rich Dad Poor Dad – Robert T. Kiyosaki